

### **TARKIBI VA CHIQRILISH SHAKLI**

Tabiiy o‘simliklar va ularning mevasidan tarkib topgan, o‘ziga xos hidga ega tabletkalar – shakli dumaloq, ikki tomoni qabariq, och jigarrang tusda. 0,5 gr.dan 60 dona. Himoyalovchi plombali polietilen flakonda yoki blisterda qodoqlangan. (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o‘ramlar, (2) – qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma.

**Tarkibi:** Dorivor valeriana (Valeriana officinalis), Qalampiryalpiz (Mentha piperita), Ginko biloba (Ginkgo), Marvaridgul (Convallaria majalis), Oddiy zira (Fructus Carvi), Qizil do‘lana (Crataegus sanguinea).

### **PREPARATNING TA‘SIRI**

- Miyada qon aylanishi va miyaning ozuqalanishini yaxshilaydi;
- Hujayralarda moddalar almashinuviga, qonning periferik va mikrosirkulyatsiyasiga, shu bilan birga qonning reologik xususiyatiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi;
- Bosh miya, mushak va bez to‘qimalarida shishga qarshi ta‘sir ko‘rsatadi;
- Stressga qarshi ta‘sir ko‘rsatadi, stressdan keyingi holatlarni, organizm o‘shidagi buzilishlarni, uyqu-tetiklik funksiyasini, ta‘lim va xotira jarayonlari buzilishlarini, bosh miyaning turli qismlarida distrofik va morfologik o‘zgarishlar pasayishini yaxshilaydi.

### **QO‘LLANILISHI**

Migrenaz – L;

- Miya qon aylanishining o‘tkir va surunkali buzilishlari;
- Bosh miyaning yengil chayqalishlari;
- Organizmda qon bosimi pasayishi sindromi (VSD, neyrosirkulyator disfunktsiya);
- Arteriya qon tomirlari devorlari (aterosklerotik) kasallanishiga bog‘liq bo‘lgan, yengil kognitiv buzilishlar;
- Xotira va aqliy faoliyatning buzilishi;
- Bosh aylanishi, quloq bitishi, qo‘rquv hissi;
- Dissirkulyator ensefalopatiyaning turli shakllari;
- Qonning periferik va mikrosirkulyatsiyasining buzilishlari (shu qatorda, qo‘l-oyoq arteriopatiyasi va bolalar ortopediyasi) va Reyno sindromini davolashda va profilaktikasida qo‘llaniladi.

### **QO‘LLASH MUMKIN BO‘LMAGAN HOLATLAR**

Preparatning ba‘zi tarkibiy ingrediylariga yuqori sezuvchanlik.

### **QO‘LLASH USULI VA DOZALARI**

Davolanish muddati va preparat miqdori, davolovchi shifokor tomonidan har bir bemorga yakka tartibda belgilanadi.

**4 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan bolalarga:** 1 tabletkadan kuniga 3 mahal.

**Kattalarga va 12 yoshdan katta bolalarga:** 1 tabletkadan kuniga 3-4 mahal.

Ichkariga, ovqatlanishdan 5-10 minut oldin.

Davolanish davomiyligi 3 oy (ayniqsa, keksa yoshdagilarga).

Qayta davolanish kursi shifokor maslahatidan so‘ng amalga oshiriladi.

### **NOJO‘YA TA‘SIRI**

Preparatning ba‘zi tarkibiy ingrediylariga organizm sezuvchanligi yuqori bo‘lgan holatlarda, allergik reaksiyalar ehtimoli mavjud.

Preparatning nojo‘ya ta‘sirilari kuzatilsa, preparatni qo‘llashdan to‘xtatish va shifokorga murojaat qilish kerak.

### **PREPARATNING ME‘YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI**

Preparatni me‘yordan ortiq qabul qilinishi oqibatida paydo bo‘ladigan noxush holatlar aniqlanmagan.

### **BOSHQA PREPARATLAR BILAN O‘ZARO TA‘SIRI**

Boshqa dori vositalari bilan qo‘llanilganda nojo‘ya ta‘siri aniqlanmagan.

### **SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATI**

Preparat bolalar qo‘li yetmaydigan, yorug‘likdan himoyalangan joyda +2 S-dan +25°S-gacha haroratda saqlanishi lozim.

Saqlanish muddati – 24 oy.